TENGLIK QONUNCHILIK NORMALARIDA EMAS, BALKI IJTIMOIY HAYOTDA NAMOYON BO‘LADI: GENDER TENGLIGINING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY MEXANIZMLARI

Shaxzoda Tog‘ayeva Ilhom qizi
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro huquq fakulteti 3-kurs talabasi
E-pochta:*togayevashaxzoda22@gmail.com*
Ilmiy rahbar: Xamdamova Firuza Urazaliyevna
Yuridik fanlar doktori (DSc)
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
“Xalqaro huquq va ommaviy-huquqiy fanlar” kafedrasi dotsenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada gender tengligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, uni ta’minlashning milliy qonunchilikda belgilangan mexanizmlari hamda ularning ijtimoiy hayotdagi amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasi va 2019 yil 2 sentyabrdagi O‘RQ-562-son «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonun normalari asosida bevosita va bilvosita kamsitish tushunchalari, gender-huquqiy ekspertiza, gender statistikasi, genderga oid audit hamda buzilgan huquqlarni himoya qilish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, ta’lim, mehnat va oilaviy munosabatlarda uchrashi mumkin bo‘lgan gender stereotiplarining teng imkoniyatlarga ta’siri huquqiy nuqtai nazardan o‘rganiladi. Maqolada yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan «Vaziyat — norma — tahlil — harakat» mualliflik modeli taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: gender tengligi, teng huquqlilik, teng imkoniyatlar, gender stereotiplari, bevosita kamsitish, bilvosita kamsitish, gender-huquqiy ekspertiza, gender statistikasi, gender auditi, huquqiy savodxonlik, konstitutsiyaviy kafolatlar.

KIRISH

Zamonaviy demokratik jamiyatning muhim belgilaridan biri inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining jinsidan qat'i nazar ta'minlanishidir. Gender tengligi mazkur tamoyilning tarkibiy qismi sifatida shaxsning ta'lim olish, mehnat qilish, kasb tanlash, rahbarlik lavozimlarini egallash va ijtimoiy hayotda ishtirok etish imkoniyatlarini teng asoslarda amalga oshirishini nazarda tutadi.

Biroq huquqiy jihatdan tenglikning e'tirof etilishi uning ijtimoiy munosabatlarda to‘liq qaror topganini anglatmaydi. Ayrim hollarda jamiyatda shakllangan an'anaviy qarashlar va gender stereotiplari insonning qobiliyati hamda shaxsiy tanlovidan ustun qo‘yilishi mumkin. Masalan, «bu kasb qiz bola uchun og‘ir», «rahbarlik erkaklarga ko‘proq mos», «o‘g‘il bola hissiyotlarini namoyon qilmasligi kerak» kabi qarashlar shaxsning imkoniyatlarini baholashda jinsga asoslangan yondashuvlarning shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Bunday holatlar har doim ham ochiqdan-ochiq huquqbuzarlik ko‘rinishida namoyon bo‘lmaydi. Ba'zan ular ijtimoiy odat, tarbiyaviy yondashuv yoki shaxsiy tavsiya sifatida qabul qilinadi. Biroq ularning muntazam takrorlanishi ta'lim, mehnat va boshqa ijtimoiy munosabatlarda imkoniyatlarning noteng taqsimlanishiga olib kelishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, gender tengligini faqat qonunchilikda mustahkamlangan huquqiy tamoyil sifatida emas, balki uning ijtimoiy hayotdagi amaliy ifodasi nuqtai nazaridan ham o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida gender tengligini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va institutsional mexanizmlarini tizimli tahlil qilish, gender stereotiplarining teng imkoniyatlarga ta'sirini huquqiy jihatdan baholash hamda yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan amaliy modelni asoslashdan iborat.

Tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Normativ-huquqiy tahlil orqali milliy qonunchilik normalarining mazmuni o‘rganildi, tizimli yondashuv yordamida huquqiy kafolatlar va ularni amalga oshirish mexanizmlari o‘zaro

bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi. Qiyosiy-huquqiy yondashuv xalqaro standartlar bilan bog‘liq jihatlarni aniqlashga, mantiqiy umumlashtirish esa tahlil natijalari asosida xulosa va takliflar ishlab chiqishga xizmat qildi.

Tadqiqotning amaliy-ilmiy hissasi gender tengligiga oid kundalik vaziyatlarni huquqiy tahlil qilishga mo‘ljallangan «Vaziyat — norma — tahlil — harakat» modelini taklif etishdan iborat. Mazkur model mualliflik taklifi bo‘lib, uning samaradorligi tajriba-sinov natijalari bilan keyinchalik tekshirilishi lozim.

ASOSIY QISM

1. Gender tengligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari

Gender tengligining huquqiy kafolatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlangan. Xususan, Konstitutsiyaning 58-moddasiga muvofiq, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat ularga jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlaydi.[1]

Mazkur konstitutsiyaviy norma gender tengligini davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilaydi. Uning mazmuni faqat huquqlarning rasman tengligini e’tirof etish bilan cheklanmay, ularni amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratish majburiyatini ham qamrab oladi.

Gender tengligi barcha insonlarning bir xil bo‘lishini anglatmaydi. Uning asosiy mazmuni insonning huquqlari, erkinliklari va imkoniyatlari jinsiga oid asossiz taxminlar yoki stereotiplar sababli cheklanmasligini ta’minlashdan iborat. Binobarin, shaxsning kasbiy yo‘nalishi, ta’lim olish imkoniyati yoki ijtimoiy faolligi uning shaxsiy qobiliyati, qiziqishi va malakasi asosida baholanishi lozim.

Milliy qonunchilikda ushbu konstitutsiyaviy tamoyil 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O‘RQ-562-son «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonun orqali yanada rivojlantirilgan.[2]

Ushbu Qonunning 3-moddasida gender statistikasi, gender-huquqiy ekspertiza, genderga oid audit, bevosita va bilvosita kamsitish kabi muhim huquqiy tushunchalar belgilangan. 4-moddada qonuniylik, demokratizm, teng huquqlilik,

jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, ochiqlik va shaffoflik asosiy printsiplar sifatida mustahkamlangan. 5-modda esa teng huquq va imkoniyatlarning kafolatlarini hamda qonunda nazarda tutilgan ayrim farqlarning kamsitish hisoblanmaydigan holatlarini belgilaydi.[2]

Demak, gender tengligi milliy qonunchilikda deklarativ g‘oya sifatida emas, balki aniq huquqiy printsiplar va kafolatlar tizimi sifatida shakllantirilgan.

2. Gender kamsitishining huquqiy mazmuni va uni aniqlash mezonlari

Gender tengligini ta’minlashda bevosita va bilvosita kamsitish tushunchalarini farqlash muhim ahamiyatga ega.

Bevosita kamsitish shaxsning jinsi, oilaviy holati, homiladorligi yoki oilaviy majburiyatlari bilan bog‘liq holda uning huquq va imkoniyatlarini cheklashda namoyon bo‘lishi mumkin. Shuningdek, teng mehnat va malaka uchun turlicha haq to‘lash ham bunday holatlarga misol bo‘la oladi.

Bilvosita kamsitish esa tashqi jihatdan barcha shaxslar uchun bir xil bo‘lgan qoida, mezon yoki talab amalda muayyan jins vakillarini boshqalarga nisbatan noqulayroq vaziyatga solib qo‘yganida yuzaga kelishi mumkin.[2]

Masalan, tashkilotda muayyan lavozim uchun barcha xodimlarga bir xil talab qo‘yilishi mumkin. Biroq ushbu talabning vazifa xususiyati bilan bog‘liq bo‘lmagan jihatlari amalda bir guruh shaxslarning imkoniyatlarini asossiz cheklasa, uning huquqiy oqibatlarini alohida o‘rganish talab etiladi.

Shu bois huquqiy tahlilda faqat qoidalarning rasman bir xilligi bilan cheklanish maqsadga muvofiq emas. Ularning amaldagi natijasi, qo‘llanish sharoitlari va shaxslarning huquqlariga ta’siri ham baholanishi lozim.

Ayni vaqtda, har qanday farqli munosabatni avtomatik ravishda kamsitish deb baholash mumkin emas. Bunda vaziyatning aniq holatlari, qo‘llanilgan mezon, ko‘zlangan qonuniy maqsad va tegishli huquqiy asoslar o‘rganilishi zarur.

Gender stereotiplariga qarshi kurashish xalqaro huquqda ham muhim o‘rin tutadi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konventsiyasi (CEDAW) 5-

moddasida ayollar va erkaklarning ijtimoiy hamda madaniy xulq-atvor modellarini o‘zgartirish, jinslarga nisbatan shakllangan stereotiplarni bartaraf etish zarurati belgilangan.[3]

Shunday qilib, gender kamsitishini aniqlashda huquqiy normalar bilan bir qatorda ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va ularning amaliy oqibatlarini ham hisobga olish lozim.

3. Gender tengligini ta’minlashning institutsional va huquqiy mexanizmlari

O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-562-son Qonuni gender tengligini ta’minlashga qaratilgan bir qator huquqiy va institutsional mexanizmlarni nazarda tutadi.

Birinchidan, gender-huquqiy ekspertiza.

Qonunning 7-moddasiga muvofiq, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalari xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlariga muvofiqligi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.[2]

Ushbu mexanizmning ahamiyati shundaki, normativ-huquqiy hujjatlarda bevosita yoki bilvosita kamsitishga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan normalarni oldindan aniqlash va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Ikkinchidan, gender statistikasi.

Qonunning 8-moddasida gender statistikasiga oid qoidalar nazarda tutilgan. U jamiyat hayotining turli sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holatini aks ettiruvchi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va e’lon qilish bilan bog‘liqdir.[2]

Gender statistikasi ta’lim, bandlik, ish haqi, rahbarlik lavozimlari va boshqa sohalardagi mavjud holatni aniqlash, ehtimoliy nomutanosibliklarni baholash hamda davlat siyosatini dalillarga asoslangan holda takomillashtirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Uchinchidan, genderga oid audit.

Qonunning 8^1-moddasida genderga oid auditni amalga oshirishning huquqiy asoslari belgilangan. Ushbu mexanizm davlat organlari va tashkilotlarida xotin-

qizlar hamda erkaklar nisbatini o‘rganish, tashkilot faoliyatida genderga doir kompleks yondashuvning mavjudligini baholash, qonunchilik ijrosini tahlil qilish va tegishli takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.[2]

Mazkur audit tashkilotlarda faqat xodimlarning son jihatdan nisbatini emas, balki ularning kasbiy rivojlanish, lavozimda o‘sish va qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlarini ham o‘rganish uchun muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, buzilgan huquqlarni himoya qilish.

Qonunning 28-moddasiga muvofiq, o‘zini jinsi bo‘yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga duchor bo‘lgan deb hisoblagan shaxs vakolatli organlarga yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega. Ushbu moddada nazarda tutilgan murojaatlar bo‘yicha davlat boji undirilmasligi ham belgilangan.[2]

Biroq huquqni himoya qilish mexanizmining samarali amalga oshirilishi uchun shaxs o‘z huquqlarini, murojaat qilish tartibini, tegishli vakolatli organlarni va zarur dalillarni bilishi muhimdir.

Shu jihatdan, gender tengligini ta’minlash nafaqat normativ-huquqiy bazani shakllantirish, balki uning ijrosini muntazam monitoring qilish va huquqiy himoya mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishni ham talab etadi.

4. Gender tengligining ijtimoiy hayotdagi amaliy ifodasi

Qonunchilikda teng huquq va imkoniyatlarning kafolatlanishi ularning barcha ijtimoiy munosabatlarda bir xil darajada ta’minlanayotganini anglatmaydi. Shu sababli gender tengligining amaliy holatini baholashda ta’lim, mehnat va oilaviy munosabatlarni alohida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Ta’lim sohasida.

Ta’lim jarayonida o‘quvchi va talabalarga vazifalarning jinsiga qarab emas, balki qobiliyati, qiziqishi va tayyorgarligi asosida taqsimlanishi muhimdir. Masalan, universitetdagi jamoaviy loyiha jarayonida taqdimot qilish va rahbarlik vazifalari «o‘g‘il bolalar dadilroq» degan stereotip asosida erkak talabaga berilib, ayol talabalarga faqat matnni tahrirlash yoki taqdimot materiallarini bezash

vazifalari yuklatilishi mumkin. Bunday holatda ayol talabalarning rahbarlik tajribasini orttirish va o‘z qobiliyatini namoyon etish imkoniyatlari cheklanishi ehtimoli mavjud. Biroq huquqiy nuqtai nazardan bunday vaziyatga baho berish uchun vazifalarni taqsimlash mezonlari, ishtirokchilarning malakasi, qaror qabul qilish jarayoni va ushbu amaliyotning muntazamligi o‘rganilishi lozim.

Mehnat sohasida.

Ishga qabul qilish, lavozimga ko‘tarish, mehnatga haq to‘lash va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini belgilashda xolis hamda vazifaga bevosita aloqador mezonlardan foydalanish gender tengligini ta’minlashning muhim shartidir.

Xodimning kasbiy salohiyatini uning jinsiga oid umumiy tasavvurlar asosida emas, balki bilimi, malakasi, ish tajribasi va mehnat natijalari asosida baholash lozim.

Oilaviy munosabatlarda.

Oilada uy yumushlari va parvarish majburiyatlarining taqsimlanishi ham insonning ta’lim olishi, dam olishi va kasbiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Masalan, uy ishlarining doimiy ravishda faqat qiz farzand zimmasiga yuklatilishi uning ta’lim olish va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli mavjud. Bunday vaziyatlarni tahlil qilishda oilaviy munosabatlarni ayblash emas, balki mas’uliyatning taqsimlanishi va uning oila a’zolari imkoniyatlariga ta’sirini baholash muhimdir.

Shunday qilib, gender tengligining amaliy holatini o‘rganishda quyidagi savollarga javob izlash maqsadga muvofiq:

1. Muayyan vaziyatga oid qanday aniq faktlar mavjud?
2. Ushbu munosabatlarga qaysi huquqiy norma tatbiq etiladi?
3. Qaror qanday mezonlar asosida qabul qilingan?
4. Qabul qilingan qarorning shaxslar huquqlari va imkoniyatlariga ta’siri qanday?

Mazkur savollar ijtimoiy munosabatlarni umumiy tasavvurlar asosida emas, balki huquqiy va daliliy yondashuv asosida baholash imkonini beradi.

5. Ta'lim tizimida gender kompetentsiyalarini rivojlantirishning ahamiyati

Gender tengligini ta'minlashda ta'lim tizimi muhim institutsional omil hisoblanadi. Chunki ijtimoiy stereotiplarning shakllanishi va ularning avloddan avlodga o'tishida ta'lim muhiti ham muayyan o'rin tutadi.

UNESCO tashkiloti tomonidan 2025 yil 8 mayda e'lon qilingan «Empowering Teachers for Gender Equality: UNESCO Supports Review of Teacher Education in Uzbekistan» nomli materialda O'zbekistonda pedagoglarni tayyorlash dasturlarining gender jihatlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijalari keltirilgan. Unga ko'ra, so'rovda ishtirok etgan pedagog-o'qituvchilarning 86 foizdan ortig'i gender masalalari bo'yicha rasmiy tayyorgarlikdan o'tmaganini bildirgan. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida esa genderga oid kurslarda qatnashganini qayd etganlar ulushi 4,8 foizni tashkil etgan.[4] Mazkur ko'rsatkichlarni talqin qilishda ularning tadqiqot qamrovi va metodologik chegaralarini inobatga olish zarur. Ushbu ma'lumotlar barcha o'zbekistonlik pedagoglar yoki talabalarni qamrab olgan umummilliy statistik ko'rsatkich sifatida qabul qilinmasligi kerak. Shu bilan birga, keltirilgan natijalar pedagoglarni tayyorlash jarayonida gender kompetentsiyalarini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Gender kompetentsiyasi pedagogning ta'lim jarayonida gender stereotiplarini aniqlash, kamsitish xavfini baholash, o'quvchilarga teng munosabatda bo'lish va ularning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish qobiliyatini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, pedagoglarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlariga gender tengligi bo'yicha maxsus o'quv modullarini kiritish, ta'lim materiallarini gender nuqtai nazaridan tahlil qilish hamda amaliy mashg'ulotlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.[4]

6. Gender tengligi bo'yicha huquqiy savodxonlikni oshirishning mualliflik modeli

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, yoshlarning gender tengligiga oid huquqiy bilimlarini mustahkamlash va ularni kundalik hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida «Vaziyat — norma — tahlil — harakat» nomli amaliy ta’lim modelini taklif etish mumkin.

Mazkur model mualliflik taklifi bo‘lib, uning samaradorligi amaliyotda sinovdan o‘tkazish va natijalarni baholash orqali aniqlanishi lozim.

Model to‘rt bosqichdan iborat:

Birinchi bosqich — vaziyatni aniqlash.

Ta’lim, mehnat, kasb tanlash yoki oilaviy munosabatlarga oid hayotiy vaziyat taqdim etiladi. Ishtirokchilar voqeaga tegishli faktlarni shaxsiy taxminlar va hissiy baholardan ajratadilar.

Ikkinchi bosqich — huquqiy normani aniqlash.

Muayyan vaziyatga taalluqli konstitutsiyaviy norma yoki qonunchilik hujjati topiladi. Ishtirokchilar huquqiy normaning mazmuni va uning qo‘llanish doirasini o‘rganadilar.

Uchinchi bosqich — huquqiy tahlil.

Vaziyatda qabul qilingan qarorning qanday mezonlarga asoslangani, ushbu mezonlarning xolisligi va ularning shaxslar huquqlariga ta’siri baholanadi.

To‘rtinchi bosqich — amaliy harakat.

Aniqlangan muammoni hal qilishning qonuniy, xavfsiz va o‘zaro hurmatga asoslangan usullari ishlab chiqiladi.

Mazkur modelning samaradorligini baholash uchun mashg‘ulotdan oldin va keyin ishtirokchilarga mazmunan o‘xshash huquqiy vaziyatlar taqdim etish taklif qilinadi. Natijalar quyidagi to‘rt mezon asosida baholanishi mumkin:

- faktlarni taxminlardan ajratish qobiliyati;
- tegishli huquqiy normani aniqlash ko‘nikmasi;
- huquqiy xulosani dalillar bilan asoslash darajasi;
- muammoni hal etish bo‘yicha maqbul va qonuniy taklif ishlab chiqish qobiliyati.

Shu tariqa, mazkur model nazariy bilimlarni amaliy huquqiy tahlil ko‘nikmalari bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Biroq uning samaradorligi haqida qat’iy xulosa chiqarish uchun tajriba-sinov mashg‘ulotlari va ularning natijalarini ilmiy baholash talab etiladi.

XULOSA VA AMALIY TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tahlillar gender tengligi demokratik huquqiy davlatning muhim konstitutsiyaviy printsiplaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi hamda davlat tomonidan ularga teng huquq va imkoniyatlar ta’minlanishi belgilangan. O‘RQ-562-son Qonun esa ushbu konstitutsiyaviy tamoyilni amalga oshirishga qaratilgan huquqiy va institutsional mexanizmlarni belgilaydi.

Xususan, gender-huquqiy ekspertiza, gender statistikasi, genderga oid audit va huquqlarni sud orqali himoya qilish imkoniyatlari tenglikni ta’minlashning muhim vositalari hisoblanadi.

Shu bilan birga, normativ-huquqiy kafolatlarning mavjudligi ularning ijtimoiy munosabatlarda to‘liq amalga oshishini avtomatik ravishda ta’minlamaydi. Buning uchun huquqiy normalarning ijrosini muntazam o‘rganish, mavjud muammolarni dalillar asosida baholash va tegishli institutsional choralarni ko‘rish zarur.

Maqoladagi tahlillar asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Ta’lim tizimida gender-huquqiy ta’limni kuchaytirish. Oliy va professional ta’lim muassasalarida gender tengligi, kamsitish shakllari va huquqiy himoya mexanizmlariga bag‘ishlangan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

2. Pedagoglarning gender kompetentsiyalarini rivojlantirish. Pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlariga gender stereotiplarini aniqlash, ularning ta’lim jarayoniga ta’sirini baholash va teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan maxsus mavzularni kiritish lozim.

3. Tashkilotlarda shaffof baholash mezonlarini joriy etish. Ishga qabul qilish, lavozimga ko‘tarish, mehnatga haq to‘lash va rahbarlik vazifalarini taqsimlashda jinsga oid taxminlar emas, balki kasbiy malaka, bilim va mehnat natijalariga asoslangan mezonlardan foydalanish zarur.

4. Gender statistikasi va audit natijalaridan samarali foydalanish. Davlat organlari va tashkilotlarda mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish orqali teng imkoniyatlarning amaldagi holatini baholash, aniqlangan muammolar bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

5. Huquqiy himoya mexanizmlari haqida xabardorlikni oshirish. Aholiga gender kamsitish holatlarida vakolatli organlarga va sudga murojaat qilish tartibi, huquqiy kafolatlar hamda zarur dalillarni rasmiylashtirish masalalari bo‘yicha tushuntirish ishlarini kuchaytirish lozim.

6. «Vaziyat — norma — tahlil — harakat» mualliflik modelini tajriba-sinovdan o‘tkazish. Ushbu modelni dastlab oliy ta’lim muassasalarida amaliy mashg‘ulotlar shaklida sinovdan o‘tkazish, olingan natijalarni baholash va samaradorligi tasdiqlangan taqdirda ta’lim jarayoniga tatbiq etish taklif etiladi.

Umuman olganda, gender tengligini ta’minlash faqat huquqiy normalarni qabul qilish bilan cheklanmaydi. Ushbu tamoyilning haqiqiy mazmuni insonning ta’lim olish, mehnat qilish, kasb tanlash va jamiyat hayotida ishtirok etish imkoniyatlari amalda qay darajada ta’minlanayotganida namoyon bo‘ladi.

Shu bois gender tengligiga oid har qanday ijtimoiy vaziyatni baholashda ikki muhim mezonga amal qilish zarur: birinchisi — inson huquqlari va qonunchilik talablariga muvofiqlik, ikkinchisi — qaror va munosabatlarning amaldagi oqibatlari.

Maqolaning asosiy xulosasi shundan iboratki, gender tengligining haqiqiy mezoni qonunchilikda e’lon qilingan tenglik emas, balki qonun bilan kafolatlangan huquq va imkoniyatlarning inson hayotida real ta’minlanishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023 yil 30 aprel kuni referendum orqali qabul qilingan. 58-modda. – URL:https://lex.uz/docs/-6445145
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi O‘RQ-562-son «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni (amaldagi tahrir). 3–8¹ va 28-moddalar. – URL:https://lex.uz/uz/docs/-4494849
3. United Nations. Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW). Article 5. – URL:https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-elimination-all-forms-discrimination-against-women
4. UNESCO. Empowering Teachers for Gender Equality: UNESCO Supports Review of Teacher Education in Uzbekistan. 8 May 2025. – URL:https://www.unesco.org/en/articles/empowering-teachers-gender-equality-unesco-supports-review-teacher-education-uzbekistan
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021 yil 28 maydagi SQ-297-IV-son qarori bilan tasdiqlangan «2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi». – URL:https://gov.uz/oz/wcu/pages/senat